

XOLIYOR SAFAROV HIKOYALARIDA ONALAR OBRAZI TALQINI

Sevinch Isomova

Alfraganus universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xoliyor Safarov hikoyalarida ona obrazining badiiy talqini, uning ma'naviy-axloqiy va ruhiy-psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Muallif yozuvchining "Ona" hamda "To'ti Momo" hikoyalari misolida ona timsolining oilaviy, ijtimoiy va milliy qadriyatlar bilan uzviy bog'liqligini ochib beradi. Tadqiqotda ona obrazi nafaqat farzand tarbiyachisi, balki jamiyatning ma'naviy tayanchi, milliy qadriyatlar davomchisi sifatida talqin etilgani asoslanadi. Shuningdek, yozuvchining badiiy uslubi, psixologik tasvir mahorati va ona qalbidagi ichki kechinmalarni yoritishdagi o'ziga xos jihatlari ilmiy-estetik nuqtayi nazardan baholanadi. Xulosa sifatida Xoliyor Safarov hikoyalarida ona obrazi hayotning murakkab qirralari, mehr-oqibat, sabr-matонат va insoniy qadriyatlarni ifodalovchi yetakchi badiiy timsol ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Xoliyor Safarov, ona obrazi, badiiy talqin, hikoya, badiiy psixologizm, ma'naviy qadriyatlar, ayol obrazi, milliy adabiyot, ruhiy kechinmalar, o'zbek nasri.

O'zbek adabiyotida ona obrazi milliy tafakkur, axloqiy qadriyatlar va ma'naviy dunyoqarash bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan. Mumtoz adabiyotda ona obraz ko'proq ramziy va umumlashtirilgan timsol sifatida tasvirlansa, zamonaviy nasrda murakkab ruhiy kechinmalar va ijtimoiy muammolar girdobida aks ettiriladi. Bunday asarlarda ona qalbidagi iztiroblar, mo'jizalardan bahramand bo'lishidan biroz chekingandek tasvirlanadi. Ayni davrda sodir bo'layotgan voqea-hodisalar ona ruhiyatini yanada teranroq anglashga xizmat qiladi. Bu borada, ayniqsa, iste'dodli yozuvchi Xoliyor Safarov hikoyalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Xoliyor Safarov o'z ijodi davomida onalar mavzusiga tez-tez murojaat qiladi. Ta'kidlash o'rinliki, u aksariyat hikoyalarida ayol – onaning millat ramzi darajasiga ko'tarilishining ma'naviy-ahloqiy asoslari mavjud ekanligini ko'rsatishga erishgan. Shu o'rinda yana bir jihatga urg'u berish lozim. Ya'ni, "Badiiy obrazlarda ko'zga

tashlanuvchi uslubiy o'ziga xosliklarni asosan ikki narsa – ijodkorni shaxs sifatida tarbiyalagan muhit va shu muhit ta'sirida voyaga yetkazgan uning shaxsiy dunyoqarashi, ta'bi, didi, voqelikni tushunish, idrok qilish, o'zlashtirish va baholash prinsiplari, g'oyalari hamda estetik konsepsiyalari vujudga keltirishini e'tiborda tutish lozim"[1;138]. Yozuvchining "Oy botmagan kechalar", "Ona", "Qanotsiz qushlar", "Onamning yolg'onlari" singari bir qator to'plamlari e'lon qilingan. Bu to'plamlarning har biri yozuvchi ijodiy yo'lining muqim bekatlari, uni badiiy kamolot manzillari sari eltuvchi muhim dovonlari sifatida yuzaga kelgan.

Axloqiy qarashlar bilan takomillashib borgan prinsiplar asosida onaga ehtirom va hurmat hissi Xoliyor Safarov ijodining manerasiga aylangan. Shu jihatlarga ko'ra, yozuvchining ona obraziga yondashuvida o'ziga xoslik va shakliy, uslubiy jihatdan rang-baranglikni kuzatish mumkin. Bunda, birinchidan, yozuvchi ona obrazi misolida millatning buguni va ertasi bilan bog'liq bashariy qadriyatlar fonida turib mulohaza yuritadi. Ikkinchidan, mavjud hikoyalaridagi mavzu muammo aksariyat hollarda sukunat, kutish va ichki iztiroblar tasvirida yoritilishi bilan ajralib turadi.

Yozuvchining ona obraziga yondashuvida ixcham, ammo chuqur badiiy ifodaga molik asarlaridan biri – "Ona" hikoyasidir. Hikoyaning asosiy mavzusi – onaning hayotidagi og'ir sharoitlar, farzandlari bilan bo'lgan munosabatlari bilan bog'liq voqealar tasvirida yoritiladi: "Uyda yolg'iz bemor ona va kenjatoy o'g'ilcha. Bola onasi uchun ham ovunchoq, ham dastyor. Hali uni olib berishni, hali buni joyiga qo'yib kelishni buyuradi. To peshingacha ahvol shu. Ona-bola bir-biriga ovunib kunni o'tkazishadi. Bolakayning pildirabgina ish qilishlaridan ruhlanib, jismidagi og'riqni unutgandek bo'ladi" [2;12].

Hikoyaning bosh qahramoni – muallima, ikki oyog'i gipslangan holda to'shaka mixlanganancha uyda yolg'iz qolishga majbur bir onaizor. Uning ahvoli og'ir – xasta jon, kuni bilan eshikka termulganicha ilhaq yotadi. Ona shunday zot – "Dunyoda hech bir chegarani tan olmaydigan va quyosh kabi muttasil nur sochib turadigan sehrli kuch bor. Bu – Ona mehri! Alloh Onani shunday yaratgan!" [2;12].

Asardagi har bir voqea ona bilan bog'liq tarzda yuzaga keladi va qahramonning qaysidir jihatlarini ochish uchun xizmat qiladi. Badiiy asarlarda keng qo'llaniluvchi bu kabi jihatlarining aynan bosh qahramonlarning ruhiy holatlarini chuqurroq tasvirlashga

xizmat qilishini hisobga oladigan bo'lsak, hikoyada keltiriluvchi ayrim hodisalarni tabiiy bir hol sifatida e'tirof etish lozim. Zero, "O'zbekning qayg'usi ham, azasi ham, iztirobi ham qudratli" [5;92]. Xususan, bolaning kuydirilgan oyoqlari va onaning og'riqli holati bayon etilgan epizod nhoyatda ta'sirlidir: "Ona o'rnidan qanday turdi, qanday uy burchidagi plita yoniga bordi, o'g'ilchasining kuyib, tutayotgan paypog'ini qanday echib otdi, bilmaydi. Bilgani – o'g'lini bag'riga bosib, peshanasidan o'pyapti, ovutyapti, o'zining esa ikkala oyog'i xuddi avvalgidek qaqshab og'riyapti..." [2;15].

Ma'lumki, "Har bir qahramon tahlilida faqat uning xatti – harakatidagi tashqi xususiyatlargagina mahliyo bo'lib qolmasdan, qahramon qalbiga – ichki dramatizmga ham quloq solmoq, uni qalban his etmoq lozim bo'ladi, shundagina qahramon munaqqid tahlilida o'zligini topadi, asardagi tutgan o'rni va qimmatini bilan namoyon bo'ladi" [4,39].

Qayd qilinganidek, har bir xarakterni tahlil etishda uning o'ziga xos fe'l-atvori, xatti – harakati, dunyoqarashi ham mavjudligini unutmaslik zaruratini yuzaga chiqaradi. Shu ma'noda, ona obrazi bilan bog'liq badiiy psixologik tasvirlar adibning "To'ti Momo" hikoyasida yanada yorqinroq ifodalanishiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Asar o'zining an'anaviy va zamonaviylikni uyg'unlashtirgan, o'ziga xos uslubida hikoya qilinishi bilan ajralib turadi.

Hikoyaning markazida To'ti Momo obrazi aks etgan. Bu obraz, nafaqat oilaviy munosabatlar va jamiyatdagi qadriyatlar, balki insonning ichki kurashi, ayol va ona sifatida yashashning murakkabligi haqida ham keng tasavvur uyg'otadi. Uning murakkab xarakter egasi ekanligini turmush o'rtog'i Ochil boboga aytgan ushbu jumlaridan ham anglash mumkin: "Kelinlaringiz qiz tug'sa, xursand bo'lasiz. Yana tarafini olib, yuzimga yostiq bilanam urishdan toymaysiz. O'zingiz ichavering! – deya har kungidek choyni peshlab, eriga piyola tutish, yonginasida o'tirish o'rniga uyga qarab yurdi" [3; 25]. Onaning tasvirida juda ko'p qatlamlar bor: u nafaqat o'z oilasining muvozanatini saqlovchi, balki uning ehtiyojlari va umidlari o'rtasida kurashayotgan ayol hamdir. To'ti Momo – o'z zamonasining ayol va ona obrazining so'nggi ifodasi sifatida, uni yanada kengroq jamiyatda va insoniyat tarixida qanday aks ettirish mumkinligi haqida izlanishlar olib borishga turtki beradi.

Ta'kidlash lozimki, har bir ijodkorning o'z uslubi, unda aytar so'zlari, mavzulari

bor. Xoliyor Safarovning hikoyalarida ona obrazining talqini bir nechta muhim jihatlarga asoslanadi. Birinchidan, u ona obrazini ma'naviy, ruhiy va ijtimoiy jihatdan ham tasvirlaydi. Adib hikoyalarida ona nafaqat farzandini dunyoga keltirgan shaxs sifatida ko'rsatiladi, balki uning ta'lim-tarbiya, qadriyatlar, o'zaro munosabatlar va jamiyatdagi o'rnini nuqtayi nazaridan ham yoritiladi. Ikkinchidan, yozuvchi hikoyalarida ona obrazining talqini ijtimoiy-madaniy kontekstda shakllanadi.

Qadimiy Sharq an'alariga ko'ra, ona, avvalo, oila va jamiyatning asosiy ma'naviy ustuni sanaladi. Ayni jihat Xoliyor Safarov hikoyalarida o'z ifodasini topgan. Yozuvchi barcha hikoyalarida ona obrazining ijtimoiy ahamiyatiga, jamiyatdagi o'rniga, ayniqsa, ona va bolalar orasidagi o'zaro hurmat hamda mehr-muhabbatga bo'lgan ta'siriga alohida e'tibor qaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, Xoliyor Safarov hikoyalarida hayotning murakkab qirralari, quvonchlari va ziddiatlari ona-ayol tafakkuridagi evrilishlar fonida tasvirlanishi bilan ajralib turadi. Bu obraz orqali adib o'zining armon va sog'inch to'la bolalik yillarini xotirlaydi. Shu boisdan asarlarida munisu mushfiq, o'zi aytgan allalar ohangidek inson qalbini mudom ezgulikka chorlovchi onalar obrazini gavdalantirishga keng o'rin beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. 2-tom. –Toshkent: Fan, 1979.
2. Safarov X. Onamning yolg'onlari. – Toshkent: Ochun, 2024.
3. Safarov X. To'ti Momo. – Toshkent: Ochun, 2018.
4. Soliyev A. Hayot va inson talqini. –Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015.
5. Qo'shjonov M. Onajonim she'riyat. –Toshkent: O'qituvchi, 1994.
6. Xo'jamuratova, M., & Avazov, N. (2026, June). MAHMUD XO'JA BEHBUDIY IJODIDA AYOL OBRAZI. In GERMANY INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE (Vol. 1, No. 1, pp. 38-40).
7. IBRAGIMOVA, D. ISAJON SULTONNING "ROBIYA BALXIY" QISSASIDA TARIXGA YONDASHUV TAMOYILLARI. FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA, 78.
8. Nosirjon o'g'li, N. M., & Xudjayeva, R. M. FUNCTIONAL CHARACTERISTICS OF STYLISTIC DEVICES AND NEOLOGISMS IN LITERARY TEXTS: A CASE STUDY OF "1984" BY GEORGE ORWELL AND "A FAREWELL TO ARMS" BY ERNEST HEMINGWAY.

9. Abdulazizova, D. Methods to achieve adequacy at the level of phrase and sentence in simultaneous interpretation Ra'nokhon Khudjaeva1. UZBEKISTAN, 77.
10. ХУДЖАЕВА, Р. ИНГЛИЗ ТИЛИДА ГЕНЕТИК БО?ЛАНМАГАН ЛЕКСИК ОМОНИМЛАРНИНГ ЭТИМОЛОГИК ТА?ЛИЛИ. ИЛМИЙ ХАВАРНОМА. НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК Учредители: Андижанский государственный университет им. ЗМ Бабура, (4), 99-100.
11. Ходжаева, Р. ГЕНЕТИК БО?ЛАНМАГАН ОМОНИМЛАРНИНГ ЭЛЕКТРОН ЛУ?АТИНИ ЯРАТИШНИНГ АМАЛИЙ МУАММОЛАРИГА ЕЧИМ ВА ТАВСИЯЛАР. ИЛМИЙ ХАВАРНОМА. НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК Учредители: Андижанский государственный университет им. ЗМ Бабура, (3), 86-88.
12. Худжаева, Р. М. (2012). Семантическая продуктивность генетически не связанных омонимов в английском и узбекском языках. Вестник Челябинского государственного университета, (17 (271)), 135-137.